2. Jamoat manfaatlarini ustuvor qo‘yish – shaxsiy manfaatdan jamiyat taraqqiyotini ustun qo‘yish tadbirkorlarning ijtimoiy javobgarligini oshiradi.

3. Resurslarni ehtiyotkorlik bilan boshqarish – samarali moliyaviy boshqaruv iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

4. Halollik va ishonch muhitini shakllantirish – adolat va halollikni targ‘ib qilish yoshlarni sog‘lom biznes muhitiga yo‘naltiradi.

5. Ta’lim va mehnatga asoslangan yutuqlar bilim va malaka orqali muvaffaqiyatga erishish tadbirkorlik taraqqiyotining asosiy omilidir.

Finlandiya tajribasiga asoslangan ushbu tamoyillar milliy ta’lim tizimida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin. Ular halollik, mas’uliyat va ta’limga asoslangan yondashuvni rag‘batlantirib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish yoshlarning shaxsiy muvaffaqiyatiga va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda nazariy, empirik va innovatsion yondashuvlar qo‘llanilib, natijalar shuni ko‘rsatdiki, tadbirkorlik ta’limi yoshlarda mas’uliyat, halollik, resurslarni boshqarish va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishga yordam beradi. Finlandiyaning korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari bu jarayonda asosiy o‘rin tutadi. Innovatsion yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali. Kelajakda tadbirkorlik ta’limini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha yangi strategiyalar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning chiqishlari va qonunchilik hujjatlari.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha milliy dastur.

(3). Каландаров, С.И. (1992). Москва. «Формирование интеллектуальных умений и навыков у школьников 7–9 классов на занятиях по гуманитарным дисциплинам (русский язык и литература в узбекской школе)». Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук.

(4). Каландаров, С.И. (2024), Ургенч, «Хрестоматия по педагогике». Учебное пособие, автор доктор философии по педагогическим наукам, доцент кафедры педагогики и психологии.

(5). Подымова, Л.С. & Сластенин, В.А. (2024), Москва. Учебник и практикум педагогика. 3-е издание.

(6). Pikabu platformasi. Finlandiyaning korrupsiyaga qarshi tamoyillari. https://pikabu.ru/tag.

(7). OECD (Organization for Economic Co-operation and Development). Entrepreneurship Education in Schools in Europe: Status, Trends, and Challenges.

(8). UNESCO. Innovative Approaches to Teaching Entrepreneurship in Modern Education Systems.

(9). World Economic Forum. The Future of Jobs Report: Skills for Entrepreneurship.

Xaitov Azizbek Azamatovich (Buxoro davlat Pedagogika instituti doktoranti; azizbekxaitov5253@gmail.com)

IMOM AL-BUXORIY HADISLARI VOSITASIDA MA’RIFATPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talaba-yoshlar tarbiyasida muhaddislar sultoni Imom al-Buxoriy ma’naviy merosining jahonshumul ahamiyati hamda alloma asarlarining yoshlar ta’lim-tarbiyasida ma’rifatparvarlik fazilatlarini shakllantirishhamda ijobiy fazilatlarni rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tahlillar asosida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Imom Buxoriy, hadis, muhaddis, ma’rifatparvarlik, tarbiya, shakl, psixologiya, metod va vosita, pedagogika, pedagogik g‘oya, tarbiya, barkamol avlod, farzand tarbiyasi, ta’lim, ma’naviy meros.*

Хаитов Азизбек Азаматович (докторант Бухарского государственного педагогического института; azizbekxaitov5253@gmail.com)

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ КАЧЕСТВ ПОСРЕДСТВОМ ХАДИСОВ ИМАМ АЛЬ-БУХАРИ

Аннотация*. В данной статье исследуется мировое значение духовного наследия Имама аль-Бухари, которого называют «султаном хадисоведов», в воспитании студентов и молодежи, а также анализируются формы, методы и средства формирования просветительских качеств и развития положительных черт личности на основе произведений ученого, их роли в образовательном процессе молодежи.*

Ключевые слова: *Имам Бухари, хадис, тухаддис, просветительская деятельность, воспитание, форма, психология, методы и средства, педагогика, педагогическая идея, воспитание, совершенное поколение, воспитание детей, образование, духовное наследие.*

Khaitov Azizbek Azamatovich (PhD student of the Bukhara state pedagogical institute; azizbekxaitov5253@gmail.com)

FORMS, METHODS AND TOOLS OF THE DEVELOPMENT OF VIRTUES OF ENLIGHTENMENT BY MEANS OF HADISES OF IMAM AL-BUKHARI

Annotation. *This article explores the global significance of the spiritual heritage of Imam al-Bukhari, known as the "Sultan of Hadith Scholars", in the education and upbringing of students and youth. It also analyzes the forms, methods, and tools for developing enlightenment qualities and fostering positive traits in individuals based on the scholar's works and their role in the educational process for young people.*

Keywords*: Imam Bukhari, hadith, muhaddis, enlightenment activities, upbringing, form, Psychology, methods and tools, pedagogy, pedagogical idea, upbringing, perfect generation, child upbringing, education, spiritual heritage.*

Kirish. Prezident Shavkat Mirziyoyev "2022–2026-yillar doirasida mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi [1]"da belgilangan (yettita ustuvor yo'nalish)ning, "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, mazkur sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida, "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish"ning maqsadga muvofiqligi, dunyonig nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy tadqiqot markazlarida, universitetlar bilan hamkorlikda va hamjihatlikda, ajdodlarimizning boy ilmiy ma'naviy merosini keng o'rganish hamda jamoatchilikka targ'ib etishga juda katta e'tibor qaratish lozim.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayoni va uning yuksak darajadagi ma'rifatli, ma'naviyatli, hurfikr dunyoqarashga ega o'zi yashaydigan mamlakat taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni har doim o'z zimmasiga olishga ega faol ma'rifatli, yosh iqtidorli kadrlar safini kengaytirish juda muhimdir. Yangi O'zbekiston yoshlari qalbida boy tarix va madaniy meros bilan faxrlanish tuyg'usi juda muhim ahamiyat kasb etadi va ularnining kamol topishiga xizmat qiladi. Islohotlarga daxldorlik hissi fuqarolar uchun yetkazishga ham jamiyat va davlatga vatanimizning ravnaqi va tichligini barqarorligini ma'naviy va madaniy merosni asrab-avaylab, keyingi avlodga yetkazish uchun birdek mas'uliyatli bo'lishga undaydi [2].

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. Hadis ilmida amirul-mo'minin Imom al-Buxoriyning ilmiy-ma'naviy merosi va undagi purmano hadislar bilan talaba-yoshlarning ma'rifatparvarlik fazilatlarini tarbiyalash va rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tanlab olingan.

Maqolada tarixiylik, man-tiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, germenevtik tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy bilish usul-laridan foydalanilgan.

K.J.Nosirovning IX–X asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari (Al-Buxoriy va Al-Forobiy asarlari misolida) dissertatsiyasi, B.Eshonjonovning IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqeyiva, uning "Al-Jomi' as-sahih" asaridagi fiqhiy masalalar, A. Inoyatovning Imom Buxoriyning "al-Jome' as-Sahih" asaridagi tafsir ilmiga oidqarashlari, Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovnaning Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish metodikasi (Umumiy pedagogika fani misolida) Imom Buxoriyning pedagogik qarashlarini ko'rib chiqqanlar. Imom Buxoriyning tarbiyaviy-axloqiy, ilmiy-falsafiy, psixologik-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy qarashlariga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, shuningdek, Imom Buxoriy ma'naviy merosini o'rgangan olimlarning tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar. Yurtimiz nomini jumlayi jahonga mashhur qilgan shunday buyuk allomaga mansub avlodlar, munosib vorislar bo'lish bizlar uchun ham ulkan sharaf, ayni vaqtda, katta mas'uliyatdir.

Insoniylik, insonparvarlik, millatparvarlik, ummuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, yuksak vatanparvarlik, erkparvarlik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, tinchliksevarlik, ma'rifatparvarlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik, komil inson, o'zlikni anglash, shaxs tarbiyasi, ilm egallash va unga amal qilish, kasb-hunar o'rganish va o'rgatish, o'z ijodkorlik faoliyatini erkin tarzda namoyon qilish, xalqimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish va uni amaliyotga tatbiq etish kabi axloqiy fazilatlarni o'quvchi-talaba-yoshlarimizda shakllantirish va uni rivojlantirib mustahkamlashda ayniqsa "Tarbiya", "Pedagogika", "Umumiy pedagogika", "Pedagogika tarixi va nazariyasi", "Falsafa", "Dinshunoslik" fanlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Imom al-Buxoriy to'plagan sahih hadislar Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatda ma'rifatli shaxsni tarbiyalashda, mehr-oqibatni shakllantirish, saxiylik, ota-onaga hurmat, yoshi ulug'larga mehr-muhabbat, yolg'iz beva-bechoralarga muruvvat, mehnatsevarlik fazilati, halol luqma va halol mehnat, vatanga

sodiqlik, turli millatlarning o‘zaro tinch-totuv ahil-inoq yashashlari barkamol avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Imom Buxoriyning musulmonlar uchun Qur’oni karimdan keyingi maqomda hisoblangan “Al-Jome’ as-sahih” asari arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Imom Ismoil Buxoriyning “Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari)”, „Al Jome’ as-sahih” (Ishonchli to‘plam) kabi ko‘plab axloq-odobga oid asarlari mavjuddir. Imom al-Buxoriy “Al-Jome’ as-sahih” asarining “Ilm kitobi”, 10-bobida Bir ishni qilishdan ham, so‘zlashdan ham avval, ilm darkorligi to‘g‘risida gapirib, “Ilmga faqat ta’lim olish bilan erishiladi” [3;40-b.] deb aytgan. Mazkur hadisdan shunday xulosaga kelish mumkinki, ilm izlamoq har bir musulmonga farzdir.

Islom ta’limotida bilmagan narsasini bilishga harakat qilish, har bir musulmon erkak va ayolga buyuk vazifadir. Demak, hadis kitoblarida ilm yo‘liga kirgan kishining niyati xolis bo‘lishi, kishi botinini to‘g‘rilashi, ilm ko‘zi ojizlar uchun qalbning hayoti, zulmatda ko‘zning nuri bo‘lishi, ilm bilan fikr qilmoq ro‘zaga barobarligi, ilm darsi kechalari qilingan ibodatga tengligi, u tufayli halol va haromning farqlanishi, baxtli insonlar unga erishishi, badbaxtlar esa undan mahrum bo‘lishi haqida yozilgan. Muhaddislar ilmning ofati unutish, uni loyiq bo‘lmagan kishiga so‘zlash uni zoye qilishdir deb o‘rganilgan ilmni unutmaslik va loyiq bo‘lmagan odamlarga so‘zlashdan saqlanish zarur deb yetkazganlar.

Imom al-Buxoriy “Ilmni yozish bilan qayd qilinglar” [4;22-b.], degan hadisni keltirib, ilmni saqlash uchun uni yozib, qayd qilib qo‘yish yaxshi ekan, shuning uchun ham o‘quvchilarni, talabalarni o‘zi bilan birga yon daftari va yozuv qurollari olib yurishga odatlantirish kerak. Imom al-Buxoriy “Al-Jome’ as-sahih” asarining “Ilm kitobi”: 15-bobida “Ikki narsadan o‘zgasiga hasad qilish joiz emas, biri – kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni haq yo‘lida sarflayotgan bo‘lsa, ikkinchisi – kishiga Alloh taolo ilm-u hikmat bersa va shu bilan hukm qilib, odamlarga bilganini o‘rgatayotgan bo‘lsa” deganlar [4;42-b.].

Imom al-Buxoriy “Sahih ul-Buxoriy” [5;216-b.]da uyatchan ham, dimog‘dor ham ilm o‘rgana olmaydi deb aytganlar. Demak, talaba yoshlarni ilmli qilish, barkamol avlodni tarbiyalash pedagoglardan alohida e’tiborni talab qiladi.

Imom al-Buxoriy hadisalaridan ilm egallash va ma’rifatga erishish yo‘llari ko‘zlangan maqsad:

1. Yoshlarni ilm-u ma’rifatga chorlash hadis kitoblarining xizmati bo‘lib, ularda ilm talab qilish har bir musulmon va muslima uchun bir umrga farz qilingan; Har bir sog‘lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasb-u korni halol olib borishiga, vatanparvar bo‘lishiga, ya’ni, hadisi shariflar barchani to‘g‘ri yo‘lga boshlashga xizmat qilishini yetkazish.

2. Hadislarning jamiyatimiz a’zolarini axloqiy tarbiyasi bo‘yicha ahamiyati beqiyos, insonni tarbiyalash, ayniqsa, bolalarga, talabalarga odob va axloqdan puxta ta’lim va tarbiya berish, uning muhim vazifalaridan biridir. Chunki jamiyat a’zolarining yaxshi xulqli, halol va pok bo‘lishini orzu qilsak-u, ammo o‘sha jamiyatning kelajagi bo‘lmish bolalar, talabalar tarbiyasi haqida qayg’urmasak, niyatlarimiz sarobligicha qolaveradi.

3. Hadislarda jamiyat a’zolari iqtisodiy tarbiyasi uchun keltirilgan foydalar benazir, ularda halol kasb, halol luqma, haromdan hazar qilish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan hadislar ma’rifatli shaxs tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi.

Imom Buxoriyning pedagogik qarashlarida insonda tarbiya vositasida shakllantiradigan sifatlarning guruhlanishi.

Ijobiy sifatlar	Salbiy sifatlar
Ezgulik	Yovuzlik
Yaxshilik	Yomonlik
To‘g‘rilik	Qing‘irlik
Hushyorlik	G‘aflat
Fahmlilik	Vahm
Ma’rifat	Jaholat
Hilmlilik	Nodonlik
Shukronalik	Norozilik

Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning subyektiv xususiyatlari qatoriga shaxs barqarorligi, xarakter mustahkamligi, ehtiyoj, motiv, maslak, salohiyat puxtaligi, o‘zini o‘zi boshqarish metodining qat’iy ravishdas hakllanganligi kiradi. Bu omil atrofga ijobiy munosabat, ko‘tarinki kayfiyat, faoliyat samaradorligi, beg‘araz munosabat, bag‘rikenglik va qalb sokinligini ta’minlashga xizmat qilishi tabiiy.

Imom Buxoriy asarlari vositasida talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantiruvchi psixologik omillar		
O‘z-o‘ziga baho berish	⟷	Fikrlarni erkin, ochiq, mazmunli ifodalash
O‘z-o‘zini anglash	⟷	O‘zgalar fikrini eshita olish
O‘z-o‘zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash	⟷	O‘zgalar bilan murosa qila olish
Bilishga qiziqish	⟷ ↓	Bilishga ehtiyoj
	Faoliyat	
Intellektual rivojlanish	↕ ⟷	**Hissiy**
	Motivatsiya	

Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish jarayonida ularning hamjihatlikda o‘quv materialini anglay olishlari, metodlarni qo‘llab bilish, ta’lim jarayonini loyihalashtira olish ko‘nikmasiga erishish – bularning barchasi o‘zaro hamkorlikda ishlash mexanizmlarining oqilona tashkil qilishdan dalolat beradi. Imom al-Buxoriy ma’naviy merosini o‘rganish, undagi hadislardagi purmano aks etadigan g‘oyalarni milliy qadriyatimizga xos mamlakatimiz yoshlarining ma’rifatli kamolotga erishishlari uchun egallayotgan bilimlarini o‘z ijodiy faoliyatlarida, mamlakatimiz taraqqiyotida yillar davomida to‘plagan malakalarini to‘laqonli aks etish imkoniyatiga ega bo‘ladigan yuksak darajada tarbiyalash eng muhim vazifalardandir. Albatta, bu ezgu vazifalarni ijobiy hal etishda xalqimiz ma’naviy merosining ahamiyati juda qimmatlidir.

Xulosa. Hadisi shariflarda bugungi kunimizda jamiyat uchun zarur bo‘lgan barcha ezguliklarga chaqiriq va jamiyatga zarar keltiradigan barcha razilliklardan qaytariqlar yetarlicha. Imom al-Buxoriy hadislari kindik qoni to‘kilgan Vatanini ardoqlovchi uning ravnaqi va kelajagi uchun fidoyi, ma’rifatli yoshlarimiz, barkamol avlod uchun albatta dastrulamal bo‘lib qolishi, shubhasizdir [6;123-b.].

Imom Buxoriy qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy meros asosida maktablarda, litsey, texnikum va oliy ta’lim muassalarida tarbiyaviy soatlar, Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, ochiq darslar, Samarqandda joylashgan Imom al-Buxoriy ziyoratgohiga, muhaddis tug‘ilgan Buxoroyi Sharifga Imom al-Buxoriy muzeyiga sayohatlar tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratish darkordir [7;218–223-b.].

Yangi O‘zbekistonda Imom Buxoriy ma’naviy merosini o‘rganish, muhaddis merosi asosisda yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://lex.uz/uz/docs/5841063//O‘z.Res.Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot startegiyasi” to‘g‘risida. PF-60-farmoni, 28.01.2022-yil.

(2). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. (ҳттпс:// сонсти тутион.уз/уз/пагес/президент_марузаси_25йил).

(3). Саҳиҳи-Бухорий: диний-маърифий. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий. Тошкент, “Munir” нашриёти, 2021, 40-бет.

(4). 101 ҳадис: диний-маърифий. Анвар Аҳмад. Тошкент, “Боок медиа Шоп” МЧЖ қошидаги “Munir” нашриёти, 2022, 22-бет.

(5). Олтин силсила: Саҳиҳ ул-Бухорий, 1-жуз, Тошкент, “Hilol-nashr”, 2023, 216-bet.

(6). Уватов У. Моваройннаҳр ва Хуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни. Т., 2004, 123-бет.

(7). Xaitov Azizbek Azamatovich. Imom al-Buxoriy merosi asosida talaba-yoshlarga ma’rifatparvarlik fazilatlarini tarbiyalash va rivojlantirish.”Ta’limda istiqbolli izlanishlar”, xalqaro ilmiy-metodik jurnal, № 6, 2024, 222-bet.

Турсунбаева Диёра Носировна (магистрант первого курса Андижанского государственного университета имени З.М.Бабура, Андижан, Узбекистан)

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. *Цель статьи заключается в изучении современных методов преподавания на уроках литературы с целью повышения уровня образовательных процессов. Представлены новые подходы к анализу литературных произведений и охарактеризованы их особенности. Новейшие инновационные способы сопоставлены с традиционными методами преподавания литературы.*